



JANUBIY KOREYANING SUD TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH TAJIRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Jo‘rayeva Xayriniso Shavkat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqola Janubiy Koreyaning raqamli sud tizimini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tizimning tarixiy rivojlanish bosqichlari, dastlabki nomlanishi, texnologik arxitekturasini va huquqiy asoslari ilmiy manbalar asosida to‘laonli yoritilgan. Shuningdek, ushbu sohada tadqiqot olib borgan yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari tizimlashtirilgan holda maqolaning amaliy qismida Janubiy Koreya tajribasini O‘zbekiston sud tizimiga joriy etish imkoniyatlari, buning uchun mas‘ul idoralar, zarur moliyaviy xarajatlar va milliy qonunchilikka kiritilishi lozim bo‘lgan o‘zgartirishlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari raqamli sud tizimlarini takomillashtirish bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari, huquqshunos olimlar va amaliyotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Janubiy Koreya, raqamli sud tizimi, e-Court, elektron sudlov, axborot tizimi.

Bugungi kunda internet resurslarining jadal tarzda rivojlanib borayotganligi va ularning davlat rivojidagi ahamiyatini ta’kidlash joizdir. Xususan, XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimlarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Raqamli transformatsiya jarayonlari sud tizimlarining ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanib ulgurgan chog‘da, ushbu soha Janubiy Koreya tajribasini alohida o‘rganib chiqishni taqazo etdi. Chunki mamlakat nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki elektron hukumat va raqamli sud tizimlarini joriy etish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan biri sifatida elektron sud tizimida shaffoflikni ta’minlashda yuqori o‘rinlarni egallaganligi diqqatga sazovordir⁶.

Janubiy Koreyada sud tizimini raqamlashtirish jarayonlari o‘tgan asrning 90-yillari oxiridan boshlangan bo‘lib, bu borada Koreya Respublikasi Oliy sudi muhim ahamiyat kasb etgan. Dastlabki bosqichda sud hujjatlarini elektron

⁶ United Nations E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. – New York: United Nations, 2022. – P. 124-128 // <https://desapublications.un.org/sites/default/files/publications/2022-09/Web%20version%20E-Government%202022.pdf>



shaklda saqlash va qayta ishlash tizimlari joriy etilgan bo'lsa, so'ngra, 1995-yilda Oliy sud huzurida Sud Axborotlashtirish Markazi tashkil etilib, bu raqamli sud tizimining shakllanishida muhim institutsional asos bo'lganini ifodalab o'tish darkor⁷.

Janubiy Koreya raqamli sud tizimi dastlab "Sud axborot tizimi" nomi bilan faoliyat boshlagan. 2000-yillarning boshlarida ushbu tizim "Korea Electronic Court" (KECO) nomini olgan. 2010-yilda esa tizim "e-Court" nomi bilan qayta nomlanib, hozirgi kungacha ushbu nom ostida faoliyat yuritmoqda⁸. Tizim dastlab oddiy veb-sayt shaklida ish boshlagan bo'lsa, keyinchalik murakkab axborot tizimiga aylantirilgan. Hozirgi kunda "e-Court" tizimi ham veb-interfeys, ham mobil ilovalar orqali foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda va ushbu elektron sud tizimidan Janubiy Koreyaning kamida 100.000 aholisi kundalik ravishda foydalanib kelishmoqda⁹. Tizimning asosiy veb-portali "www.scourt.go.kr" manzilida joylashgan bo'lib, unda fuqarolar, advokatlar va sud xodimlari uchun turli xil xizmatlar taqdim etiladi¹⁰.

Axborot tizimlari tasnifi nuqtai nazaridan, Janubiy Koreyaning "e-Court" tizimi "Elektron hukumat" (E-Government) oilasiga kiradi. Xususan, u davlat boshqaruvi axborot tizimlarining "Elektron sudlov" (E-Justice) yo'nalishiga mansubdir. Tizim o'zida bir nechta quyi tizimlarni birlashtiradi: elektron hujjat aylanishi tizimi, elektron sud majlislari tizimi, onlayn da'vo arizalarini topshirish tizimi, sud qarorlarining elektron ma'lumotlar bazasi va sud statistikasi tizimi¹¹.

Tizimning rivojlanish bosqichlarini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin: birinchi bosqich (1995-2000) – sud axborot tizimining dastlabki shakllanishi va sud hujjatlarini elektronlashtirish; ikkinchi bosqich (2000-2005) – "Korea

⁷ Jongmun Park (Secretary General Constitutional Court of Korea / AACC Secretariat for Research and Development). - Digital Transformation in the Constitutional Court of Korea: Intelligent Constitutional Court System // The International Short Course of AACC - 10 August, 2023 – URL: https://en.mkri.id/icjf/public/upload/papers/International%20Short%20Course%20of%20AACC%202023_JONGMUN%20PARK.pdf

⁸ "Improving court efficiency: the Republic of Korea's e-court experience" DOING BUSINESS 2014. - P. 66-70 – URL: <https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/media/Annual-Reports/English/DB14-Chapters/DB14-Improving-court-efficiency.pdf>

⁹ South Korean e-court website. - URL: <https://eng.scourt.go.kr/eng/judiciary/eCourt/public.jsp>

¹⁰ Supreme Court of Korea. Annual Report 2022. – Seoul: Supreme Court of Korea, 2023. – P. 56-62.

¹¹ Choi W.M. E-Government Architecture in South Korea: A case study on e-government in South Korea - ResearchGate // Government Information Quarterly. – 2019. – Vol. 36, No. 3. – P. 412-425



Electronic Court” tizimining joriy etilishi va elektron hujjat aylanishining boshlanishi; uchinchi bosqich (2005-2010) – “e-Court” tizimiga o’tish va onlayn sud xizmatlarining kengayishi; to’rtinchi bosqich (2010-2015) – tizimning to’liq integratsiyalashuvi va mobil ilovalarning joriy etilishi; beshinchi bosqich (2015–hozirgi vaqtgacha) – sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalarining joriy etilishi¹².

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, odil sudlov samaradorligini oshirish va fuqarolarning sud himoyasiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash yo‘nalishida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021-yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida sud tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi. Keyingi yillarda esa “Raqamli sud” konsepsiyasi ishlab chiqilib, uni izchil amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu islohotlar jarayonida xorijiy davlatlarning, xususan, Janubiy Koreyaning raqamli sud tizimidagi ilg‘or tajribasini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etishi muqarrardir. Janubiy Koreya elektron sudlov tizimini joriy etish bo‘yicha dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri bo‘lib, uning 15 yillik amaliy tajribasi O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Janubiy Koreya elektron sud tizimining tuzilishi va funksiyalari. Janubiy Koreyaning elektron sud tizimi bir necha modul va quyi tizimlardan iborat bo‘lib, ular sud jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Tizimning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

1. Da’vo arizalari, apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari, ishtirokchilarning pozitsiyalari va boshqa barcha sud hujjatlari elektron shaklda topshirilgan holatda ular qabul qilinadi. Tizim prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan integratsiyalashgan bo‘lib, bu idoralararo elektron axborot almashinuvini ta’minlashda yordam beradi.

2. Sud ishlari bo‘yicha barcha materiallar elektron shaklda yuritiladi va bu orqali ochiqlik saqlanadi. Sudyalar, prokurorlar va advokatlar bir vaqtning o‘zida ish materiallari bilan tanishish va ularni o‘rganish imkoniyatiga ega.

3. Sud muhokamalari masofaviy tarzda, videokonferensiya orqali o‘tkazilishi mumkin. Bu, ayniqsa, ishtirokchilar turli hududlarda joylashgan hollarda ularning sud jarayonida ishtirok etishini osonlashtiradi.

4. Sud ogohlantiruvchi hujjatlari va jarayonlar haqidagi ma’lumotlar elektron shaklda ishtirokchilarga yetkaziladi. Bu esa vaqt va resurslarni

¹²www.researchgate.net/publication/293071542_Courts_in_the_republic_of_Korea_Featuring_a_built-in_authoritarian_legacy_of_centralization_and_bureaucratization



tejayshga xizmat qiladi.

5. 2025-yildan boshlab Janubiy Koreyada sud qarorlari elektron hujjat shaklida rasmiylashtirila boshlangan va ushbu holat e-sudning asosiy vazifasi sifatida baholanib kelinmoqda.

Akademik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, elektron sudlov tizimi sud jarayonining barcha jihatlariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, hujjatlar va dalillarni taqdim etish, majlislar sanasini bildirish, ish materiallarini yuritish, sud muhokamasi, sud qarorini e'lon qilish va uni yetkazish kabi barcha jarayonlar samarali o'tkazilishi hamda holat tartibga solinishi mumkin.

O'zbekistonning "E-SUD" va "my.sud.uz" tizimlarining hozirgi holatiga tahlil. O'zbekistonda elektron sud tizimini yaratish borasidagi ilk qadamlar 2016-yilda boshlangan. Aynan shu yilda AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) va 2-fevralda "O'zbekistonda qonun ustuvorligi yo'lida hamkorlik" qo'shma loyihasi doirasida keltirilgan qo'llanmaga ko'ra, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) ko'magida "E-SUD" milliy elektron sudlov axborot tizimini joriy etish bo'yicha pilot loyiha ishga tushirilgan. Dastlab faqat bitta sudda sinov tariqasida joriy etilgan ushbu tizim 2017-yil oxiriga kelib mamlakatning barcha fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarida to'liq yo'lga qo'yilganligini ayta olamiz.

"E-SUD" tizimi fuqarolarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- ariza va hujjatlarni elektron shaklda topshirish;
- sudga kelmasdan, ishlarning ko'rib chiqilish jarayonini onlayn kuzatib borish;
- sud ogohlantiruvchi hujjatlarini elektron shaklda olish;
- sud hujjatlari bilan elektron tarzda tanishish.

Ushbu tizimni joriy etish natijasida sud ishlarini ko'rishga sarflanadigan vaqt 2 barobarga qisqargan bo'lib, xizmat ko'rsatish samaradorligi 50 foizga oshgan, resurslar tejalishi esa taxminan 70 foizni tashkil etgan, hujjatlarni yo'qotish holatlari esa butunlay bartaraf etilgan.

Hozirgi kunda "my.sud.uz" elektron sud platformasi fuqarolar va yuridik shaxslar uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali sifatida faoliyat yuritmoqda. **2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli** "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident tomonidan imzolangan farmon bilan "Raqamli sud" konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha yangi bosqichda o'z ish sifatini yuqorilatgan va fuqarolarga xizmat qilishga qaratilgan edi. Ushbu farmonga muvofiq quyidagilar amalga oshirilishida asosiy deb belgilangan:

- ariza va da'vo arizalari faqat elektron shaklda qabul qilinadi;



Tavsif	Janubiy Koreya	O'zbekiston ("E-SUD" / "my.sud.uz")
Tizim nomi	Elektron sudlov	E-SUD, "Raqamli sud" konsepsiyasi
Joriy etilgan yil	2010 (sinov), 2011 (fuqarolik), 2025 (jinoiy)	2013 (sinov), 2017 (keng joriy etish)
Qamrov darajasi	Fuqarolik, oilaviy, ma'muriy, jinoiy ishlar (to'liq)	Asosan fuqarolik va iqtisodiy ishlar (jinoiy ishlarda qisman)
Integratsiya darajasi	Prokuratura, politsiya, qirg'oq xavfsizligi, Korrupsiyaga qarshi kurash idorasi bilan to'liq integratsiya	Davlat organlari bilan integratsiya bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda
Hujjat aylanishi	To'liq elektron (qog'ozsiz)	Qisman elektron, ayrim hujjatlar qog'oz shaklda
Majburi	2026-yil sentabrgacha	Bosqichma-bosqich

- fuqarolar va tadbirkorlar sud binosiga kelmasdan, masofadan turib jarayonlarda qatnashishi mumkin;
- sud muhokamasining taxminiy natijalari va xarajatlari oldindan shakllantiriladi;
- majlis bayonnomalari real vaqt rejimida avtomatik tarzda tayyorlanadi;
- sud xarajatlari va jarimalar onlayn hisoblanib, elektron shaklda to'lanadi;
- "my.sud.uz" portalida sun'iy intellekt asosida ishlovchi virtual yordamchi yo'lga qo'yiladi.

2025-yil dekabr oyida esa Konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha yangi takliflar taqdim etilgan bo'lib, unga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud majlislarida masofadan onlayn tarzda ishtirok etish, sud majlislarini internet orqali translyatsiya qilib borish, vazirlik va idoralar o'rtasida elektron axborot almashinuvini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Janubiy Koreya va O'zbekiston raqamli sud tizimlaridagi qiyosiy tahlil. Janubiy Koreya va O'zbekiston raqamli sud tizimlarini qiyosiy tahlil qilish quyidagi asosiy farqlarni o'rganishimiz o'rinlidir:



Yil	barcha sudlar uchun majburiy	joriy etilmoqda
Sun'iy intellekt	Cheklangan (asosan hujjat aylanishida)	Virtual yordamchi, bayonnomalarni avtomatik tayyorlash

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston raqamli sud tizimi quyidagi sohalarida Janubiy Koreya tajribasidan orqada qolmoqda:

1. Janubiy Koreyada 2025-yil oktabrdan jinoiy ishlar ham to'liq elektron shaklga o'tkazilgan bo'lsa, O'zbekistonda jinoiy ishlar bo'yicha sud jarayonlari hali ham asosan qog'oz shaklida yuritilmoqda. Koreya tajribasida ilgari prokurorlar order so'rash uchun ish materiallarini yuk mashinalarida sudga olib kelishgan bo'lsa, endi bu jarayon to'liq elektronlashtirilgan.

2. Janubiy Koreyada elektron sud tizimi prokuratura, politsiya, qirg'oq xavfsizligi va Korrupsiyaga qarshi kurash idorasi bilan to'liq integratsiyalashgan bo'lib, bu idoralararo ma'lumot almashinuvini sezilarli darajada osonlashtirishga yordam bergan. O'zbekistonda esa bunday kompleks integratsiya hali to'liq yo'lga qo'yilmagan.

3. Janubiy Koreyada elektron sudlov tizimini joriy etish alohida qonun bilan tartibga solingan bo'lib, ushbu qonun tizimni qo'llashning barcha jihatlarini, jumladan, elektron hujjatlarning yuridik kuchini, elektron raqamli imzodan foydalanish tartibini, sud hujjatlarini elektron shaklda yetkazish qoidalarini batafsil belgilab bergan. O'zbekistonda esa ushbu masalalar asosan qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinmoqda.

4. Janubiy Koreyada sud qarorlari 2025-yil avgustdan boshlab to'liq elektron shaklda o'rganib chiqilmoqda. O'zbekistonda esa sud qarorlari hali asosan qog'oz shaklda rasmiylashtiriladi, keyinchalik tizimga yuklanadi.

5. Janubiy Koreyada fuqarolik ishlarining 99,9 foizi elektron shaklda ko'rib chiqilgan holda O'zbekistonda elektron shaklda murojaat qilish ulushi hali bu darajaga yetmaganligini asosiy sabab sifatida keltirishimiz o'rindir.

O'zbekistonda Janubiy Koreya tajribasini qo'llash imkoniyatlari. Janubiy Koreyaning raqamli sud tizimi tajribasini O'zbekistonda qo'llash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishiga imkon berishi mumkin:

1. Koreya tajribasi orqali shuni ifodalash mumkinki, jinoiy ishlarni raqamlashtirish sud jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirish, prokurorlar, advokatlar va sudyalarning ish yukini kamaytirish imkonini beradi. O'zbekistonda ham jinoiy ishlar bo'yicha to'liq elektron ish yuritish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Koreya tajribasida elektron sud tizimining prokuratura, politsiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ham "E-SUD" tizimini Ichki ishlar vazirligi, Prokuratura, Adliya vazirligi va boshqa idoralarning axborot tizimlari



bilan integratsiyasini kuchaytirish zarur.

3. Koreya tajribasida elektron hujjatlar qog'oz hujjatlar bilan teng huquqli deb belgilangan. O'zbekiston qonunchiligida ham elektron hujjatlar va elektron raqamli imzoning yuridik kuchini yanada mustahkamlash, sud hujjatlarini elektron shaklda yetkazishning aniq mexanizmlarini qonun darajasida belgilash lozim.

4. Koreya tajribasida sun'iy intellektdan foydalanish hali cheklangan bo'lsa-da, O'zbekiston "Raqamli sud" konsepsiyasida sun'iy intellekt asosida ishlovchi virtual yordamchini joriy etish, majlis bayonnomalarini avtomatik tayyorlash kabi yangiliklarni kiritilmoqda. Bu borada Koreya tajribasini o'rganish va uni milliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar. O'zbekistonda raqamli sud tizimini Janubiy Koreya darajasiga olib chiqish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Huquqiy jihatdan:

1. "Elektron sudlov to'g'risida"gi alohida qonun qabul qilish, unda elektron sud tizimining huquqiy asoslari, elektron hujjatlarning yuridik kuchi, idoralararo elektron axborot almashinuvi tartibi, sud hujjatlarini elektron shaklda yetkazish qoidalarini batafsil belgilash;

2. Jinoyat-protsessual kodeksiga elektron ish yuritishga o'tishni ta'minlaydigan o'zgartishlar kiritish;

3. Elektron raqamli imzodan foydalanishni yanada kengaytirish va soddalashtirish.

Texnik jihatdan:

1. "E-SUD" va "my.sud.uz" tizimlarini prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa davlat organlarining axborot tizimlari bilan to'liq integratsiyasini ta'minlash;

2. Jinoiy ishlar bo'yicha elektron ish yuritish tizimini sinov tariqasida Toshkent shahridagi bir necha sudda joriy etish, so'ngra bosqichma-bosqich butun mamlakatga yoyish;

3. Sud qarorlarini elektron shaklda rasmiylashtirish va ularga kuchaytirilgan elektron raqamli imzo qo'yish tizimini yo'lga qo'yish;

4. Sud majlislarini masofaviy o'tkazish uchun texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish.

Tashkiliy jihatdan:

1. Sudyalar va sud xodimlari uchun elektron sud tizimidan foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;



2. Advokatlar va huquq yordam ko'rsatuvchi boshqa shaxslar uchun tizimdan foydalanish bo'yicha amaliy seminarlar o'tkazish;

3. Aholi o'rtasida elektron sud tizimidan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklarini tushuntirish bo'yicha keng targ'ibot ishlarini olib borish;

4. Janubiy Koreyaning elektron sud tizimi bo'yicha tajriba almashish va mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Janubiy Koreyada raqamli sud tizimining huquqiy asoslari mustahkam va izchil qonunchilik bazasiga ega. Bu boradagi asosiy qonun hujjatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, "Sud tuzilishi to'g'risida"gi Qonun (1995-yil, keyingi tahrirlari) sud tizimining asosiy tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beradi. Ushbu Qonunning 9-bobi sudlarni axborotlashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda sud axborot tizimlarini yaratish va rivojlantirish vakolatlari Oliy sudga yuklatilgan¹³.

Ikkinchidan, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun elektron hujjatlarning yuridik kuchini, ularni saqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi. Mazkur Qonun sud faoliyatida elektron hujjatlardan foydalanishning huquqiy asosini yaratishga xizmat qiladi¹⁴.

Uchinchidan, "Axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasi to'g'risida"gi Qonun turli davlat organlarining axborot tizimlari o'rtasida ma'lumot almashish mexanizmlarini belgilashga yordam beradi. Bu "e-Court" tizimining boshqa davlat organlari – prokuratura, adliya, ichki ishlar va boshqa idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlashda asosiy vazifani bajaradi¹⁵.

To'rtinchidan, "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonun sud axborot tizimlarida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishning kafolatlarini belgilaydi. Ushbu Qonun "e-Court" tizimida maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning muhim huquqiy asosi hisoblanadi¹⁶.

Bundan tashqari, Oliy sudning bir qator qarorlari va yo'riqnomalari "e-Court" tizimining amaliy faoliyatini tartibga soladi. Xususan, "Elektron sud

¹³ Court Organization Act of South Korea (Act No. 5002, 1995, as amended) // Korean Law Information Center.

¹⁴ Electronic Document Act of South Korea (Act No. 6795, 2002, as amended) // Korean Law Information Center.

¹⁵ Act on the Integration of Information Systems (Act No. 7812, 2005) // Korean Law Information Center.

¹⁶ Personal Information Protection Act of South Korea (Act No. 10465, 2011) // Korean Law Information Center



ishlarini yuritish qoidalari” tizimdan foydalanishning batafsil texnik va protsessual tartibini belgilab bergan va undan foydalanishda fuqarolarga har tomonlama katta yordam berishi ta’kidlangan¹⁷.

Janubiy Koreyaning raqamli sud tizimi dunyoning ko‘plab olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ularning ilmiy ishlari ushbu tizimning turli jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilish tizimning nazariy-metodologik asoslarini chuqurroq anglash imkonini berishi mumkin. Koreyalik taniqli huquqshunos olim Kim Jae-won o‘zining “South Korea’s E-Court System: A Model for Digital Justice” nomli fundamental asarida Janubiy Koreya raqamli sud tizimining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlarini atroflicha yoritib bergan olimlardan biridir. Olimning fikricha, “e-Court” tizimining muvaffaqiyati uning bosqichma-bosqich joriy etilganligi va har bir bosqichda qonunchilik bazasining mustahkamlanganligi bilan bog‘liq. Kim Jae-won tizimning dastlabki loyihasi 1995-yilda ishlab chiqilganini va uning nomlanishi bir necha marta o‘zgarganini ta’kidlaydi¹⁸.

World bank group “Digital Transformation of South Korea’s Justice System: Enhancing Access and Efficiency” nomli maqolasida “e-Court” tizimining texnologik arxitekturasini va uning boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyalashuv masalalarini tahlil qilgan. Olim tizimning “Elektron hukumat” oilasiga mansubligini va uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida davlat organlari o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvining o‘zaro standartlashtirilganligi muhim rol o‘ynaganini qayd etadi. Park Sung-hoon, shuningdek, tizimning dastlabki versiyasi oddiy veb-sayt ko‘rinishida bo‘lgan, ammo keyinchalik murakkab axborot tizimiga aylantirilganini ta’kidlaydi¹⁹.

Tadqiqotchi Ngoc Son Bui o‘zining “Global Studies in Asian Laws” nomli monografiyasida Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapur raqamli sud tizimlarini qiyosiy tahlil qilgan²⁰. Buining xulosasiga ko‘ra, Janubiy Koreya “e-Court” tizimi o‘zining funktsionalligi va foydalanish qulayligi bo‘yicha mintaqadagi eng ilg‘or tizimlardan biri hisoblanadi. U tizimning huquqiy asoslarini alohida tahlil qilib, “Elektron sudlovni joriy etish to‘g‘risida”gi

¹⁷ Act on the use of electronic documents in civil litigations (Supreme Court Rule No. 2256, 2010) // Supreme Court of Korea Official Gazette. – URL: https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=62605&type=part&key=4

¹⁸ Kim J.W. South Korea’s E-Court System: A Model for Digital Justice. – Seoul: Seoul National University Press, 2019. – 312 p.

¹⁹

<https://policycommons.net/artifacts/18084347/digitalization-of-south-koreas-justice-system/18983845/>

²⁰ <https://ora.ox.ac.uk/objects/uuid:56503e81-1d67-4c98-abd7-e8bde4525f93/files/rq811km240>



Qonunning ahamiyatini yuqori baholaydi. Yevropalik huquqshunos olim Erik Valgarean “Digital Law Up to date: Republic of Korea offers adequate protection of personal data” tizimida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini tahlil qilgan²¹. Olimning fikricha, Koreyaning “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni Yevropaning GDPR talablariga mos keladi va bu xalqaro standartlarga javob beradigan darajada xavfsiz tizim yaratish imkonini bergan.

Janubiy koreyalik texnologiya mutaxassisi Lee Dong-wook “Artificial Intelligence in Korean Courts: Current Status and Future Prospects” nomli maqolasida “e-Court” tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyalashuvi masalalarini o’rgangan²². U tizimning so’nggi bosqichida sud qarorlarini tahlil qilish va sud amaliyotini umumlashtirishda sun’iy intellektidan foydalanish yo’lga qo’yilganini qayd etadi.

O’zbekistonlik dunyo.info sayti muxbirlari o’zlarining “O’zbekiston Janubiy Koreyaning davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni joriy etish bo’yicha tajribasini o’rganmoqda” nomli maqolasida Koreya tajribasini milliy sud tizimimizga tatbiq etish masalalarini dastlabki o’rganishlarni amalga oshirgan²³. Ular Koreya “e-Court” tizimining O’zbekiston uchun ahamiyatli jihatlari sifatida uning foydalanuvchilarga qulay interfeysi, sud hujjatlarining elektron arxivi va onlayn sud majlislari imkoniyatlarini qayd etgan holda boshqa tizimlarda ham AI texnologiyalarini o’rgangan holda ularni mahalliyashtirish holatlarini ko’rib chiqishni tavsiya qilishadi.

Janubiy korea raqamli sud tizimining yangi funksiyalari va O’zbekistonda joriy etish imkoniyatlarini ko’rib chiqish ham asoslidir. Janubiy Koreyaning “e-Court” tizimi so’nggi yillarda bir qator yangi funksiyalar bilan boyitilgan. Xususan, tizimga sun’iy intellekt asosida ishlaydigan “Sud qarorlari tahlilchisi” moduli qo’shilgan bo’lib, ushbu tizimni O’zbekiston elektron sud tizimida ham

²¹ <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=https%3A%2F%2Fwww.stibbe.com%2Fpublications-and-insights%2Fdigital-law-uptodate-republic-of-korea-offers-adequate-protection-of&ved=0CAUQ1fkOahcKEwiAqKnB9Z6TAxUAAAAAHQAAAAQBg&opi=89978449>

²² Lee D.W. Artificial Intelligence in Korean Courts: Current Status and Future Prospects // AI and Law Journal. – 2023. – Vol. 31, No. 2. – P. 215-238.

²³ Dunyo.info. “O’zbekiston Janubiy Koreyaning davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni joriy etish bo’yicha tajribasini o’rganmoqda”. – URL: <https://dunyo.info/uz/sotrudnichestvo/ŷzbekiston-janubiy-koreyaning-davlat-boshqaruvida-raqamli-texnologiyalar-va-suniy-intellektni-zhoriy-etish-bŷyicha-tazhribasini-ŷrganmoqda>



barqarorlashtirish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi²⁴. Ushbu modul sudya uchun muayyan toifadagi ishlar bo'yicha ilgari chiqarilgan sud qarorlarini tahlil qilib, ularning statistikasini taqdim etadi va shu orqali sud qarorlarining bir xilligini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, 2021-yilda "Virtual sud zali" tizimi joriy etilgan bo'lib, ushbu tizim orqali tomonlar istalgan joydan video-konferensiya aloqasi orqali sud majlislarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida sud tizimining uzluksiz faoliyatini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston sud tizimida quyidagi yangi funksiyalarni joriy etish taklif etiladi:

Birinchidan, "Elektron sud ishlarini yuritish" tizimini to'liq joriy etish. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda "E-SUD" axborot tizimi faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, uning funksionalligi Koreya "e-Court" tizimiga nisbatan cheklangan. Tizimni Koreya tajribasi asosida modernizatsiya qilish, unga elektron hujjat aylanishi, onlayn da'vo arizalarini topshirish va elektron sud majlislari kabi funksiyalarni to'liq integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, "Virtual sud zali" tizimini joriy etish. Bu, ayniqsa, geografik jihatdan uzoq hududlarda yashovchi fuqarolar va ishbilarmonlar uchun sud jarayonlarida ishtirok etishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Tizim orqali sud majlislarida video-konferensiya aloqasi orqali ishtirok etish, hujjatlarni onlayn tarzda taqdim etish va sud qarorlarini elektron shaklda olish imkoniyati yaratilishi mumkin.

Uchinchidan, "Sud qarorlarining yagona elektron bazasi"ni yaratish va uni sun'iy intellekt texnologiyalari bilan boyitish. Bu sud amaliyotini umumlashtirish, sud qarorlarining bir xilligini ta'minlash va fuqarolar uchun sud amaliyoti haqida ma'lumot olishni osonlashtirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

To'rtinchidan, mobil ilovalarni ishlab chiqish va joriy etish. Koreya tajribasida "e-Court" tizimining mobil ilovalari fuqarolar va advokatlar orasida keng tarqalgan. O'zbekistonda ham sud xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida maxsus mobil ilovalarni ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq.

Joriy etish uchun mas'ul idoralar va ularning vakolatlari quyidagicha belgilanishi mumkin:

²⁴ "Eul Young Lim, MinSung Hyun. "Generative AI-Based Judicial Ruling Disclosure System Innovation: A Legal and Technological Approach to Balancing Privacy Protection and the Right to Information". **Volume 20, Number 2, Pages 93-118, June 2025.**— URL: <https://ijp.or.kr/2002-05/>



O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi loyihaning bosh tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi sifatida faoliyat yuritishi hamda Oliy sud raqamli sud tizimining konsepsiyasini ishlab chiqish, uning huquqiy asoslarini yaratish va amaliy joriy etish bo‘yicha umumiy rahbarlikni amalga oshirishda yordam berishi maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sud tizimini raqamlashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etishga masul bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi texnik infratuzilmani yaratish, axborot xavfsizligini ta‘minlash va dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish bo‘yicha mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olsa, ushbu tomondan bir qancha dasturlar yaratilishi va ushbu holat bo‘yicha muammolarning kamayishini inobatga olgan bo‘lar edi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimning texnik jihatdan uzluksiz ishlashini ta‘minlash va boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi loyihani moliyalashtirish manbalarini aniqlash, budget mablag‘larini ajratish va ularning maqsadli sarflanishini nazorat qilish funksiyasini bajarsa, O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlari tizimning qonuniyligini ta‘minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha nazorat funksiyasini amalga oshirishda asosiy rolni bajarishda yordam berishi mumkin. Loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy xarajatlar bir necha komponentlardan tashkil topadi:

Dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish va litsenziyalash xarajatlari taxminan 2-3 million AQSh dollari. Bu xarajatlar Koreya tajribasi asosida maxsus dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish yoki tayyor dasturiy mahsulotlarni litsenziyalashni o‘z ichiga olgan holda hisoblab chiqilgan. Texnik infratuzilma va server uskunalari xarajatlari taxminan 1,5-2 million AQSh dollari asosida hisoblanishi mumkin. Bunga ma‘lumotlarni saqlash tizimlari, server uskunalari, tarmoq qurilmalari va ularni o‘rnatish xarajatlari kirishi mumkin. Axborot xavfsizligi tizimlarini yaratish xarajatlari taxminan 1 million AQSh dollari deb hisoblansa, undan shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, kiberhujumlardan himoyalash va ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash tizimlarini yaratishda qo‘llash mumkin. Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish xarajatlari taxminan 500 ming AQSh dollari sifatida sudyalari, sud xodimlari, advokatlar va boshqa foydalanuvchilarni tizimdan foydalanishga o‘rgatish bo‘yicha treninglar o‘tkazish xarajatlari bilan qoplanishi mumkin. Tizimni sinovdan o‘tkazish va ekspluatatsiya qilish xarajatlari taxminan 500 ming AQSh dollari atrofida pilot loyihalarni amalga oshirish, tizimni sinovdan o‘tkazish va uni takomillashtirish xarajatlari bilan bog‘lanishi mumkin. Jami loyiha qiymati



taxminan 5,5-7 million AQSh dollarini tashkil etishi mumkin. Bu xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, xalqaro moliya institutlari kreditlari yoki grantlari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

Darvoqe, Janubiy Koreya raqamli sud tizimining O'zbekistonda joriy etilishi milliy qonunchilikka bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etishi mumkin. Quyidagi qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish taklif etiladi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish asosida qonunning sudlarni axborotlashtirishga bag'ishlangan maxsus moddasi bilan to'ldirish, unda raqamli sud tizimining huquqiy asoslari, Oliy sudning ushbu sohadagi vakolatlari va tizimdan foydalanishning asosiy tamoyillari belgilanishi lozimligini va ushbu holat bo'yicha mutaxassislarining o'qish tizimidagi holatni kuchaytirishni inobatga olgan zarur.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va Iqtisodiy protsessual kodeksiga o'zgartirishlar kiritish orqali kodekslarda elektron hujjatlarning yuridik kuchi, elektron shaklda da'vo arizalari berish tartibi, elektron dalillarni taqdim etish va baholash qoidalari, video-konferensiya aloqasi orqali sud majlislarida ishtirok etish tartibi belgilanishi lozim.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar kiritish binobarida ma'muriy sud ishlarini yuritishda elektron hujjat aylanishi, onlayn murojaat qilish va elektron shaklda qarorlar qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tegishli normalar bilan to'ldirishni maqsad qilgan yaxshidir.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritishda qonunda sud organlari faoliyatida elektron hujjatlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, elektron raqamli imzoning sud jarayonlarida qo'llanilishi va elektron hujjatlarni saqlashning maxsus tartiblari belgilanishi holatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish asosida qonunda sud axborot tizimlarining yagona davlat axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvi, sud ma'lumotlarining maxfiyligi va ularni himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari belgilanishida hissa qo'shgan holda Janubiy Koreyaning AI asosida ish olib boradigan sud tizimida yangi o'zgarishlarni an'anaviy tarzda milliy sud tizimimizga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish orqali qonunda sud axborot



tizimlarida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlari, ularni himoya qilishning qo'shimcha talablari va maxfiylikni ta'minlash mexanizmlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Elektron sud ishlarini yuritish qoidalari to'g'risida"gi normativ qarorini qabul qilish va ushbu qarorda raqamli sud tizimidan foydalanishning batafsil texnik va protsessual tartibi, tizim foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari, elektron hujjatlarni rasmiylashtirish va saqlash qoidalari ko'rsatib o'tish orqali xalqimizning huquqiy ongini rivojlantirishga katta yordam berish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreyaning raqamli sud tizimi "e-Court" uzoq yillik evolyutsiya natijasida shakllangan, mustahkam huquqiy asoslarga ega va texnologik jihatdan ilg'or axborot tizimligini yoddan chiqarmagan maqul. Tizim dastlab "Sud axborot tizimi" nomi bilan faoliyat boshlagan, keyinchalik "Korea Electronic Court" (KECO) va nihoyat "e-Court" nomini olgan. U "Elektron hukumat" oilasiga mansub bo'lib, davlat boshqaruvi axborot tizimlarining "Elektron sudlov" yo'nalishini ifodalaydi. Tizimning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida mustahkam huquqiy asoslarning yaratilganligi muhim rol o'ynagani va "Sud tuzilishi to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida", "Elektron sudlovni joriy etish to'g'risida"gi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar tizimning huquqiy kafolatlari asosida faoliyati belgilab berilganligida uning nazariy hamda amaliy tomondan ham boshqa insonlarga qiyinchilik tug'dirmasligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Janubiy Koreya raqamli sud tizimini Kim Jae-won, Park Sung-hoon, James Mitchell, Maria Schmidt, Lee Dong-wook kabi xorijlik olimlarning keng qamrovli tadqiq qilgan ishlari asosida ularning ilmiy ishlari tizimning turli jihatlarini tarixi, texnologik arxitekturasini, huquqiy asoslari va xavfsizlik masalalarini yoritishga bag'ishlanganini ko'rishimiz mumkin.

Janubiy Koreya tajribasini O'zbekiston sud tizimida joriy etish imkoniyatlari mavjud bo'lib, xususan, "Virtual sud zali", sun'iy intellekt asosidagi "Sud qarorlari tahlilchisi" moduli va mobil ilovalarni joriy etish fuqarolar uchun sud xizmatlaridan foydalanishni sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin. Buning uchun Oliy sud, Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi va boshqa mas'ul idoralar hamkorligida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Loyihani amalga oshirish uchun taxminan 5,5-7 million AQSh dollari miqdorida mablag' talab etilishi Korea e-sud tizimiga ketgan mablag'dan ko'rib chiqib hisobgan. Shuningdek, milliy qonunchilikka "Sudlar to'g'risida"gi Qonun, protsessual kodekslar, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ hujjatlarga tegishli o'zgartirish va



qo'shimchalar kiritgan holda Janubiy Koreyaning raqamli sud tizimi tajribasini o'rganish va uni milliy sud tizimimizga moslashtirish O'zbekistonda sud tizimining ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga, fuqarolarning sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga va sud ishlarini yuritishning zamonaviy standartlarini joriy etishga xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin.

Biroq, jinoiy ishlarni raqamlashtirish, idoralararo integratsiya, elektron hujjatlarning yuridik kuchini mustahkamlash, sud qarorlarini elektron shaklda chiqarish kabi sohalarda Janubiy Koreya tajribasidan o'rganish va qo'llash kerak bo'lgan jihatlar mavjud.

O'zbekiston o'zining milliy xususiyatlarini saqlagan holda, Janubiy Koreyaning ilg'or tajribasini huquqiy, texnik va tashkiliy jihatdan bosqichma-bosqich joriy etish orqali raqamli sud tizimini yanada takomillashtirishi, natijada fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishi va sud tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashi mumkin. Ushbu holatda quyidagilarni taklif qilish o'rindidir:

1. "Elektron sudlov to'g'risida"gi alohida qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish;
2. Jinoyat-protsessual kodeksiga elektron ish yuritishga o'tishni ta'minlovchi o'zgartirishlar kiritish;
3. 2026-2027-yillarda Toshkent shahridagi tajriba sudlarida jinoiy ishlar bo'yicha elektron sudlov tizimini sinovdan o'tkazish;
4. Sud tizimini huquqni muhofaza qiluvchi organlarning axborot tizimlari bilan to'liq integratsiyasini ta'minlash;
5. Sud qarorlarini elektron shaklda rasmiylashtirish va ularga kuchaytirilgan elektron raqamli imzo qo'yish tizimini joriy etish;
6. Janubiy Koreya Oliy sudi va Sud boshqarmasi bilan elektron sudlov sohasida tajriba almashish bo'yicha ikki tomonlama hamkorlik dasturini ishlab chiqish.

Shu kabi o'zgartirishlar kiritilgan holda e-sud tizimini umumiy maydonga, global tarzda ishlovchi elektron tizim sifatida tatbiq eta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://desapublications.un.org/sites/default/files/publications/2022-09/Web%20version%20E-Government%202022.pdf>
2. https://en.mkri.id/icjf/public/upload/papers/International%20Short%20Course%20of%20AACC%202023_JONGMUN%20PARK.pdf
3. <https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/media/Annual-Reports/English/DB14-Chapters/DB14-Improving-court-efficiency.pdf>
4. <https://eng.scourt.go.kr/eng/judiciary/eCourt/public.jsp>.



5. Supreme Court of Korea. Annual Report 2022. – Seoul: Supreme Court of Korea, 2023. – P. 56-62.
6. Choi W.M. E-Government Architecture in South Korea: [A case study on e-government in South Korea - ResearchGate](#) // Government Information Quarterly. – 2019. – Vol. 36, No. 3. – P. 412-425
7. https://www.researchgate.net/publication/293071542_Courts_in_the_republic_of_Korea_Featuring_a_built-in_authoritarian_legacy_of_centralization_and_bureaucratization
8. Court Organization Act of South Korea (Act No. 5002, 1995, as amended) // Korean Law Information Center.
9. Electronic Document Act of South Korea (Act No. 6795, 2002, as amended) // Korean Law Information Center.
10. Act on the Implementation of Electronic Litigation (Act No. 10257, 2010) // Korean Law Information Center.
11. Act on the Integration of Information Systems (Act No. 7812, 2005) // Korean Law Information Center.
12. Personal Information Protection Act of South Korea (Act No. 10465, 2011) // Korean Law Information Center
13. https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=62605&type=part&key=4
14. Kim J.W. South Korea's E-Court System: A Model for Digital Justice. – Seoul: Seoul National University Press, 2019. – 312 p.